

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/2 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Полвонов Козимбек

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ШАҲАРЛАРИ ТОПОНИМИГА ОИД

МАЪЛУМОТЛАР 10-15

Hadjamuratova Matlyuba

МАКТАБГАСНА ТА’ЛИМДА БОЛАЛАРНИ ИJTIMOИY НИМОYA QILISHGA INNOVATSION

YONDOSHUVNING DOLZARBLIGI 16-21

Шовкатов Шокир Шовкат ўғли

АБУЛ-ЮСР ПАЗДАВИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР 22-31

Mo‘minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o‘g‘li

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD QONUNCHILIGIGA KIRITILGAN O‘ZGARISHLAR VA

ULARNING АНАМИЯТИ 32-36

Пардаев Асрор

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИНИ ХАЛҚ ИСТЕЪМОЛИ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ

МАҲСУЛОТЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ 37-42

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Умурзақова Мўътабархон Нодир қизи

ЖАХОНДА ТИББИЙ СУҒУРТА ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ 43-52

Рахманов Зафар

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ДЕПОЗИТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ

ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИ БАҲОЛАШ 53-62

Аминов Фазлитдин Бахадирович

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ

РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 63-70

Курбонова Шахриноз Авазхоновна

ИҚТИСОДИЁТНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА АСОСИЙ ВОСИТАЛАР

ТАҲЛИЛИНИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ 71-81

Azimova Hulkar Egamberdiyevna

KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISHDA TIJORAT BANKLARINING O‘RNI 82-87

Rajabov Orzujon Mamasoliyevich

LOGISTIKA XIZMATLARINI KO‘RSATISHDA BUYUMLAR INTERNETI (INTERNET OF

THINGS)DAN FOYDALANISH 88-93

Саидов Сарвар Хайруллоевич

ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИЛАРИДА БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

БОРАСИДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ 94-104

Сержанов Аймурат Медетбаевич

ХАЛҚАРО АМАЛИЁТ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ БАНКЛАР ХИЗМАТЛАРИНИ ЯРАТИШ

ЗАРУРИЯТИ 105-111

Туробов Шерзод Алишерович, Ибодуллаев Зафар Ибодуллаевич

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ХОРИЖ

ТАЖРИБАСИ 112-119

Daniyarova Feruza Baxriddinovna, Chinorova Shahodat Mansur qizi

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA HORIJY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH

YO‘LLARI 120-126

Temirova Feruza Sagdullayevna

XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA BRENDGA SODIQLIK 127-132

Sharipova Shaxzoda Xasanovna

YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI 133-138

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Алимова Шахноза Хамидовна

НОГИРОНЛИГИ БОР ЁШЛАР - АЛОҲИДА ХУСУСИЯТГА ЭГА ИЖТИМОИЙ-ДЕМОГРАФИК
ГУРУҲ СИФАТИДА 139-147

Асракулова Адипа Набиевна

“ЁШЛАР ВА БИЗНЕСНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ЙИЛИ” НИНГ ҚАБУЛ ҚИЛИНИШИ
ТАДБИРКОРЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ
АҲАМИЯТИ 148-154

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Teshabayeva Dilfuza Muminovna

LEXICAL PROBLEMS OF TRANSLATING THE NAMES OF NEW PHENOMENA IN MASS
MEDIA 155-160

Rustamov Ilxom Tursunovich, Inog'omjonova Robiya Rustamjon qizi

INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA AKS ETISHI XUSUSIDA OLIMLARNING
TADQIQOTLARI VA QARASHLARI 161-165

Abdikhamidova Sevinch Obidjon kizi

PROBLEMS FACED IN TRANSLATING PROPER NOUNS 166-170

Djurakulova Elmira Suyunova

SHOYIM BO'TAYEV ROMANLARIDA BADIY XRONOTOP VA MIFOLOGIK TALQIN 171-177

Dalieva Madina Khabibullaevna

THE ROLE OF BLENDING THEORY IN POLYSEMY AND METAPHOR 178-183

Жўраева Ирода Ахмедовна

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК АНТРОПОНИМИК ЛУҒАТЛАР ТИПОЛОГИЯСИ 184-189

Iminova Shahnoza-Begim Bahodirovna

INGLIZ TILIDA INSONNING IJOBIY AQLIY XUSUSIYATLARINING IFODALOVCHI
BIRLIK LARNING KONSEPTUAL, LINGVO-MADANIY XUSUSIYATLARI 190-193

Irgasheva Shoxida Sadriddinovna

INTERNET DISKURSIDAGI IQTISODIY NEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISH
XUSUSIYATLARI 194-200

Tursunova Zarina Farxodovna

LINGVISTIKADA EMOTLARNI O'RGANISHGA ZAMONAVIY YUNDASHULAR (INGLIZ TILI
ASOSIDA)..... 201-205

Satibaldiyev Erkinjon Kamilovich

PARADIGMATIC SOUND INTERFERENCE IN THE ENGLISH SPEECH OF
TURKOPHONES 206-212

Radjabova Hafiza Shukrulloevna

INGLIZ VA O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI 213-220

Avezova Dilorar Salimovna

TAXALLUSLARNI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATI 221-225

<i>Alikberova Kamila Adhamovna</i> A CRITICAL ANALYSIS OF LANGUAGE USE AND LANGUAGE ACQUISITION	226-232
<i>Rakhmatova Bahara Ibodulla qizi</i> THE ROLE OF LEGAL DISCOURSE IN MODERN LINGUISTICS	233-238
<i>Valieva Nargizakhon Zamir kizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF “KITE RUNNER” AND “A THOUSAND SPLENDID SUNS” BY KHALED HOSSEINI: THEMES, CHARACTERS, AND SOCIOPOLITICAL CONTEXT	239-244
<i>Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI KASB-HUNAR LEKSIKASINING STUKTURAL TASNIFI	245-251
<i>Alimova Kamola Tursunovna</i> CHALLENGES IN PREPARATION OF GUIDE TRANSLATORS	252-258
<i>Сейтумбетова Айкумар Пулатбаевна</i> ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	259-264
<i>Бегжанова Айсилиу Махмудовна</i> ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА КОМПЬЮТЕР ЛИНГВИСТИКАСИ ТЕРМИНЛАР ТИЗИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	265-270
<i>Kubanova Ilmira Sharifovna</i> EXPLORING ABBREVIATED RAILWAY TERMINOLOGY IN ENGLISH: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	271-275
<i>Azamjonova Sarvinoz</i> USE OF TOPONYMS IN MODERN FRENCH MEDIA	276-282
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Muxiddinova Dildora Muxiddinova</i> O'ZBEKISTONNING BOJXONA FAOLIYATIGA KIOTO KONVENSIYASINI JORIY ETISHNING HUQUQIY JIHATLARI VA JSTGA A'ZOLIKNING TA'SIRI	283-292
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li</i> SOLIQ NAZORATI HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATI INSTITUTINING MUHIM OMILI	293-298
<i>Mustanov Ilxom Abdivalijonovich</i> BANK QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI	299-304
<i>G'oyibov Jo'rabek Choriyevich</i> YOSHLAR MIGRATSIYASI: MUAMMO VA YUTUQLAR TAHLILI	305-309
13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Kuziyev Otabek Chuliyevich</i> TALABALARDA AXBOROT MODELLASHTIRISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM UCH BOSQICHI	310-314
<i>Fattaxova Diloram</i> TIL O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN KOMPYUTER METODLARI	315-321
<i>Moydinova Elmira</i> APPLICATION OF FLIPPED LEARNING METHODS IN THE UNIVERSITY	

CLASSROOM	322-326
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i>	
ZAMONAVIY BOSHLAG'ICH TA'LIMDA 4K MODEL KOMPETENSIYALARINI	
RIVOJLANTIRISHGA INTEGRATIV YONDASHUVNING MOHIYATI	327-333
<i>Doniyorova Gulrux Shoniyozovna</i>	
AVTOMOBILSOZLIK YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI	
RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI	334-338
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i>	
RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMINING ASOSIY NAZARIYALARIDA TA'LIM OLUVCHINING	
ANALITIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	339-344
<i>Xo'jamberdiyeva Dilfuza Ikramovna</i>	
DARSLIK BILAN ISHLASH O'QUVCHILARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI	
RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA	345-351
<i>Mamaraimov Bekzod Qodirovich</i>	
O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING	
QIDIRUV FAOLIYATIGA TAYYORLIGI	352-356
<i>Xudayberdiev Nurislam Nuralievich</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING	
TASHKILIIY-PEDAGOGIK MEXANIZMI	357-363
<i>Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich</i>	
TALABALARINING O'QUV FAOLIYATI VA ILMIY IZLANISHLARIDA SUN'IY INTELLEKT:	
IMKONIYAT VA CHEGARALAR	364-369
<i>Teshaboyeva Shahodat</i>	
ZAMONAVIY SHAROITDA SHAXSNING KASBIY HUQUQIY MADANIYATI	370-375
<i>To'rayeva Dilnoza Ismoilovna</i>	
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI	
RIVOJLANTIRISH USLUBIY TAYYORGARLIKNING BIR QISMI SIFATIDA	376-380
<i>Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA	
INNOVATSION JARAYONLAR	381-388
<i>Dusyarov Salimjon Xudaymuratovich</i>	
HARAKATLI O'YINLAR ASOSIDA MAKTAB O'QUVCHILARIDA JISMONIY MADANIYATNI	
SHAKLLANTIRISH	389-393

Radjabova Hafiza Shukrulloevna
O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
Xorijiy tillar markazi boshlig'i
radjabovahafiza@gmail.com

INGLIZ VA O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada Vena, Praga va Moskva terminologik maktablarining faoliyat yo'nalishlari, terminologiyaning nazariy asoslari va uni qo'llashni tartibga soluvchi metodologik tamoyillar, shuningdek, **o'zbek** terminologiyasining yuzaga kelishi, terminlarni to'plash, tartibga solish va unifikatsiyalash borasidagi olimlarning fikrlari hamda normativ hamda deskriptiv yondashuvlar haqidagi ma'lumotlar umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: terminologiya, yondashuv, metodlar, metodologiya, ko'p tillilik, lingvistik va extralingvistik omillari.

Radjabova Hafiza Shukrulloevna
Academy of the Ministry of Internal Affairs of
The Republic of Uzbekistan
Head of the Foreign Language Center

METHODOLOGICAL BASIS OF ENGLISH AND UZBEKI TERMINOLOGY

Abstract. The article highlights the directions of activity of Vienna, Prague and Moscow terminological schools, the theoretical foundations of terminology and methodological principles regulating its use, as well as the opinions of scientists on the emergence of Uzbek terminology, collection, regulation and unification of terms, as well as normative and descriptive approaches.

Key words: terminology, approach, methods, methodology, multilingualism, linguistic and extralinguistic factors.

Раджабова Хафиза Шукруллоевна
Академия МВД Республики Узбекистан
Руководитель Центра иностранных языков

МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ БАЗА АНГЛОЯЗЫЧНОЙ И УЗБЕКСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация. В статье освещена деятельность Венской, Пражской и Московской терминологических школ, теоретические основы терминологии и методологические принципы, регулирующие ее использование, а также мнения ученых о возникновении узбекской терминологии, сборе, регламентации и унификации терминов, а также нормативный и описательный подходы.

Ключевые слова: терминология, подход, методы, методология, полиязычие, лингвистические и экстралингвистические факторы.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI2Y2024N30>

Kirish. Jahonda sohalar rivojlanar ekan, ular terminologiyasining shakllanishi va taraqqiyot yo'lini tadqiq etish jahon tilshunosligi uchun dolzarb va muhim sanaladigan jarayonlardan biridir. Soha mutaxassislarining asosiy nutqini tashkil etuvchi terminlarning tadqiqi XX asr o'rtalaridan boshlab faoliyatini boshlagan bo'lsada, bugungi kunga qadar o'z dolzarbligini yo'qotmadi. XX asrning birinchi yarmigacha na tilshunoslar, na ijtimoiy soha olimlari terminologiya sohasiga e'tibor qaratganlar, faqat 1950-yillardan boshlab ular bu sohaga qiziq boshlaganlar. Tilshunoslarning odatda terminologik tadqiqotlarga unchalik qiziqish bildirmaganliklarining sababi, buning o'rniga ular inson tillarini tartibga soluvchi tamoyillar nazariyani ishlab chiqish bilan shug'ullanishgan, ammo aloqa vositasi sifatida ko'rilgan tilning ko'p jihatlari bilan deyarli shug'ullanishmagan [1: 2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. "Vena maktabi"ning asosiy vakillaridan biri, avstriyalik Oygen Vyuster hamda sovet terminologiya maktabining asoschisi, muhandislik sohasidan chiqqan D.S.Lotte zamonaviy terminologiyaning asoschilari hisoblanadi. Oygen Vyuster o'zining doktorlik dissertatsiyasida terminologiyani tizimlashtirish metodlari, terminlar bilan ishlashning bir qator prinsiplari, terminologik ma'lumotlarni qayta ishlash metodologiyasiga asosiy e'tiborni qaratadi. G.Rondo ta'kidlaganidek, bu vaqtda Vyuster nazariyadan farqli o'laroq, terminlarning metodologiyasi va ularni standartlashtirish bo'yicha shug'ullangan [2: 78], chunki u terminologiyani ilmiy va texnik muloqotlardagi ko'p ma'nolikdan ajratib olingan holda ishlatilishi kerak bo'lgan vosita deb hisoblagan. Uning terminologiya nazariyasiga bo'lgan qiziqishi keyinroq paydo bo'ladi va ilk bor 1975-yilda Infoterm simpoziumining ochilish marosimida Vyuster terminologik nazariya va uning asoschilari sifatida to'rtta olimni sanab o'tadi: maxsus terminlarning sistematik xususiyatini birinchi bo'lib ko'rib chiqqan germaniyalik A. Shloman, shveysariyalik tilshunos F. De Sossyur [3:45], ISO (International Organization for Standardization)ni qo'llab-quvvatlash orqali standartlashtirishning ahamiyatini ta'kidlagan rus olimi E.Drezen [4:43] va terminologiyalarni xalqaro miqyosda tarqatishda muhim rol o'ynagan hamda YUNESKO xalqaro tashkilotida ham ushbu masala bilan olimlarni shug'ullanishga chaqirgan ingliz olimi J. E. Xolmstrom [5:23]. Heribert Picht "Terminologiya fani: Tarix va evolyutsiya" nomli kitobida Vyuster, Drezen va Lotte terminologiyasining asosiy yondashuvlarini quyidagicha talqin qiladi:

- 1) tushuncha bilimning bir qismi sifatida namoyon bo'lishi;
- 2) bilimlarni buyurtma qilish;
- 3) ko'rsatmalar bilan tartibga solinadigan terminni shakllantirish;
- 4) tushunchalar va terminlarni dinamik standartlashtirish [6: online].

Terminologiyaga qiziqish bir vaqtning o'zida Yevropaning bir qator mamlakatlari, ya'ni Avstriya, sobiq Sovet Ittifoqi va sobiq Chexoslovakiyada paydo bo'ldi. Aynan ushbu mamlakatlardan terminologiyani o'rganish avval g'arb mamlakatlari Fransiya, Kanadaga, undan so'ng shimoliy mamlakatlar Belgiya va Skandinaviyaga, so'nggi davrda janubiy mamlakatlar Shimoliy Afrika, Markaziy va Janubiy Amerika, Portugaliya, Ispaniyaga va yaqin yillarda esa sharqiy mamlakatlar Xitoy va Yaponiyaga tarqaldi. Ushbu mintaqalarning har biridagi o'zgarishlar terminologiya o'rganiladigan kontekst va uning maqsadi bilan tavsiflanadi.

Ojeninig fikriga ko'ra, zamonaviy terminologiya rivojlanishining to'rtta asosiy davrini ko'rish mumkin:

- a. terminologiyaning kelib chiqishi (1930-1960-yillar)
- b. terminologiya sohasining shakllantirilishi (1960-1975-yillar)

c. sohaning keskin rivojlanishi (1975-1985-yillar)

D. sohaning kengayishi (1985-yildan hozirgi kungacha) [7:27].

Bundan tashqari Oje terminologiyada uchta asosiy yo'nalishni ko'rish mumkinligi haqida ham aytib o'tadi.

1) lingvistik tizimga moslashtirilgan terminologiya (*lisoniy yondashuv*);

2) tarjimaga yo'naltirilgan terminologiya (*tarjimaviy yondashuv*);

3) rejalashtirilgan terminologiya (*rejalashtirishga qaratilgan yondashuv*) [1:12].

1. *Lingvistik tizimga moslashtirilgan terminologiya.*

Ushbu yo'nalish Vena, Praga va Moskva maktabi yo'nalishi hisoblanib, uning faoliyati Vyusterning nazariyasiga asoslangan. Ushbu maktabning ahamiyatli tomoni shundaki, uning ko'plab nazariy va zamonaviy amaliyotning asosini tashkil etuvchi tizimli prinsiplar va usullar to'plamini ishlab chiqqanligidadir. Uning eng ko'zga ko'ringan xususiyati shundaki, u tushunchalarga e'tibor qaratadi va terminologik tadqiqotlarni terminlar va tushunchalarni standartlashtirishga yo'naltiradi. Vena maktabi mutaxassislar o'rtasida samarali aloqa orqali bilimlarni uzatishni ta'minlash uchun texnik mutaxassislar va olimlarga o'z sohalarida terminologiyani standartlashtirish zarurligini uqtiradi. Markaziy va Shimoliy Yevropaning aksariyat mamlakatlari (Avstriya, Germaniya, Norvegiya, Shvetsiya va Daniya) ushbu tizim doirasida ishlaydi, unda fan mutaxassislarining o'zlari ixtisoslashgan terminologiya uchun javobgar hisoblanadi.

Chexiya terminologiya maktabining asosiy tarafdorlaridan biri bo'lgan L. Drodz [8:115] Praga tilshunoslik maktabini funksional lingvistik yondashuv asosida tashkil qildi. Bu deyarli terminologiyada muhim rol o'ynaydigan maxsus tillarning tarkibiy va funksional tavsifi bilan bog'liq. Maxsus tillar adabiy, jurnalistik yoki muloqot uslublari kabi boshqa uslublarda mavjud bo'lgan "Professional uslub" ham hisoblanadi. Ushbu maktab terminlarni funksional-professional uslubni tashkil etuvchi birliklar ekanligini ta'kidlab o'tadi. Bu maktab tillar va terminologiyalarni standartlashtirish tarafdori bo'lib, qilinadigan tadqiqot ishlari Ilmiy tadqiqotlar Akademiyasining Chex Tili institutiga birlashtirilgan [1:103].

Sergey Alekseyevich Chaplignin, Lotte va ularning hamkasblarining tadqiqotlariga asoslangan rus terminologiya maktabi, asosan, sobiq Sovet Ittifoqidagi mavjud ko'p tillilik bilan bog'liq muammolar asosida tushunchalar va terminlarni standartlashtirish tarafdori edilar.

Ushbu uchta terminologiya maktabining barchasi (ular terminologiyani ifoda va aloqa vositasi deb hisoblaydi) terminologiyaning nazariy asoslari va uni qo'llashni tartibga soluvchi metodologik tamoyillarga asoslanib ish yuritishadi. Keyinchalik Kanada federal hukumati tomonidan Kvebekda tashkil qilingan tilni rejalashtirish va terminologiya masalari bilan shug'ullanadigan (Canada Translation Bureau)ning asosiy jamoalaridan hisoblanishgan.

2. *Tarjimaga yo'naltirilgan terminologiya.*

Tarjimani qo'llab-quvvatlaydigan terminologiyadagi ushbu ikkinchi yo'nalish institutsional jihatdan ikki tilli yoki ko'p tilli viloyatlarda yoki mamlakatlarda, masalan, Kvebek, Belgiyaning Valon hududi va ko'p tilli xalqaro tashkilotlar (masalan, BMT, YUNESKO, Yevropa Ittifoqi) tomonidan amalga oshiriladigan terminologik faoliyat uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, terminologik ma'lumot bazalarini yaratishga sabab bo'ladigan ushbu yo'nalish turli tillarda terminologik ekvivalentlarni shakllantirish, matnlarda qo'llanilish imkonini yaratishga hissa qo'shadi [1:331].

3. *Tilni rejalashtirishga yo'naltirilgan terminologiya.*

Tilni rejalashtirish o'z faoliyatini 1960-yillarda boshlagan va dastlab katta sotsiologik sohalarda kam sonli guruhlar ishlatadigan tillaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlovchi siyosatni joriy etishga qaratilgan. Masalan, Kvebekda fransuz tili uchun "normal" maqomni ta'minlash va uning foydalanishning barcha sohalarida to'liq rivojlanishi uchun siyosat amalga oshirildi. Shunga o'xshash rejalar hozirda Kvebeknikiga o'xshash til holatlariga ega bo'lgan ko'plab mamlakatlarda amalga oshirilmoqda. Ushbu turdagi tilni rejalashtirishning asosiy vazifasi shundan iboratki, beqaror tildan foydalanish rasmiy organlar tomonidan amalga oshiriladigan tizimli, strategik aralashuv orqali qonunchilik va o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan tegishli choralar bilan o'zgarishi mumkin. Istalgan o'zgarishga erishish uchun ushbu til barcha sohalarida professional aloqani ta'minlash uchun zamonaviy, izchil terminologiyaga ega bo'lishi kerak. Maqsad texnologiya jihatidan ustun mamlakatlarda so'zlashadigan tillardan olib kelingan terminologiyani almashtirish va shu bilan ona tilida so'z shakllanishini rivojlantirishdir.

Muhokama va natijalar. Barcha tillarning so'z boyliklari ma'lum bir tushunchalarni aniq ifoda etish maqsadida o'zining lug'atiga terminlarni qabul qilar ekan, O'zbek terminologiyasi ham bundan ayro emas. O'zbek terminologiyasi ham so'zlarni umumiste'molga qabul qilishda ma'lum bir bosqichlarni bosib o'tdi. O'zbek adabiy tili leksikasi qonuniyatlari negizida shakllangan terminologik leksika tarixini qadimgi turkiy til (VII-X asr) terminologiyasi, eski turkiy til (XI-XIV asr) terminologiyasi, eski o'zbek adabiy tili (XV-XX asr boshi) terminologiyasi, sho'rolar davri o'zbek tili terminologiyasi va istiqloq davri o'zbek tili terminologiyasi tarzida davrlashtirish salkam o'n to'rt asrlik vaqt mobaynida terminologik leksika tizimida intralingvistik va ekstralingvistik omillar negizida sodir bo'lgan jarayonlarni anglab yetish imkonini beradi [9:12].

Hozirda o'zbek terminologiyasi sohalarga oid terminlarni yaratish orqali jadal rivojlanib bormoqda. So'z boyliklarini oshirish ikki yo'l bilan amalga oshirilmoqda.

a) tilda mavjud, tayyor so'zlardan yangi narsa-predmet va yangi tushunchalarni ifodalashda foydalanish;

b) o'zbek adabiy tili so'z yasash imkoniyatlari ishtirokida yangi terminlar yaratish [10:28].

O'zbek tiliga kirib kelgan so'zlarning katta qismi rus tilidan kirib kelganligini inobatga olib, ushbu so'zlarni qayta ko'rib chiqish 1989-yilning 21-oktyabrida "Davlat tili haqidagi" Qonunning qabul qilinishi bilan bog'liq. Qonunning 19 – moddasida "O'zbekiston Respublikasida o'zbek xalqining ilm-fan tilini takomillashtirish uchun o'zbek tilida ilmiy-texnik hamda ijtimoiy-siyosiy terminlarni yaratish va rivojlantirish ta'minlanadi" mazmunidagi vazifalarning yuklanishi tilshunoslar oldiga ushbu sohaga bo'lgan munosabatni o'zgartirishni taqazo etdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida tashkil qilingan Terminshunoslik qo'mitasining sa'y harakatlari bilan bir qancha so'zlar qayta muomalaga kiritildi. Bu vaqtga kelib, ilgari faol qo'llanib kelingan terminlarning, ayniqsa, ruscha-baynalmilal qatlamni qaytadan ko'rib chiqish tendensiyasi kuchayib ketdi. Shubhasiz, bunday sa'y – harakatlar o'zbek tilining qayta jonlanishi, uni sofliqini saqlashga qaratilganligi bilan ahamiyatli. Sobiq sho'rolar hukmronligi davrida o'zbek tilidagi bir qator ko'hna so'zlar arxaizmlar sifatida qaralib, muomaladan chiqarilganligi fikrimizga dalil bo'ladi. Biroq, ma'lum bir tushunchalarning o'zbek tili terminologiyasi tizimida muqobil variantlari mavjud bo'lmaganligi sabab, ularning bir so'z bilan nomlanishida qiyinchiliklar yuzaga keldi. Su sababli

ruscha – baynalmilal terminlar o'zbek tiliga to'g'ridan – to'g'ri qabul qilindi. Masalan: budjet – budjet, kredit - kredit, atom - atom, gidrolokatsiya – gidrolokatsiya, deduksiya - deduksiya, gerb – gerb, auditor – auditor, repatriatsiya – repatriatsiya, fraksiya – fraksiya, profitsit-profitsit, integratsiya-integratsiya, diplomatiya-diplomatiya, texnologiya-texnologiya, solyarisolyari, stomatologiya stomatologiya, timidin-timidin, gers-gers, volt-volt, amperamper, mentalitet-mentalitet, kislorod-kislorod, uglerod-uglerod va h.k [11:38-48].

Lekin bu bilan bir qancha kamchiliklar ham yuzaga keldiki, ya'ni shoshma – shosharlik bilan rus tilidagi so'zlarni o'zbek tilidagi shakliga o'zgartirish, bular termin yasash qoidalariga zid edi. Buning natijasida noilmiy terminlar paydo bo'ldi va bu jarayon sinonimiyaning rivojlanishiga turtki bo'ldi.

R.Doniyorov "O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari" kitobida o'zbek terminologiyasini tartibga solish va unda yuzaga kelayotgan chalkashliklarni oldini olishga qaratilgan fikrlari bilan aynan texnik terminologiyadagi rivojlanishga o'zining katta hissasini qo'shgan.

XX asrning 30 – yillarida o'zbek terminologiyasi sezilarni o'zgarishlar amalga oshirildi, bunda terminlarning kelib chiqishi, ularning ma'no – mazmuni va mavzuviy guruhlari, yasalishi va grammatik tuzilishi, lingvistik va extralingvistik omillari haqida nazariy bilimlar keng yoritildi.

Shuningdek, U. Tursunovning o'zbek terminlarining yuzaga kelishi, ularni to'plash, tartibga solish va unifikatsiyalash borasidagi fikrlari orqali sohada ro'y berayotgan chalkashliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha qarashlari bayon qilingan [12: 58; 67; 88]. Unga ko'ra, terminologiyada uchrayotgan kamchiliklar qatorida, bir tushunchani ifodalash uchun bir nechta atamalardan foydalanilayotganligi va shunday tartibda yozuvda ham yozilayotganligi, terminlarning ixchamligi va aniqligini keltirish o'rniga uzun izohlar bilan berilishi, ularni yaratishda ona tili imkoniyatlaridan kam foydalanilayotganligi va terminologiya rivojiga ta'sir qiluvchi ekstralingvistik omillarga har xil yondashish shular jumlasidandir. Shuningdek, Tursunov terminlarning qo'llanilishi va ularni boyish manbalarini asosiy muammolar sifatida ko'rsatsa, ularni o'rganishda uch asosiy guruhga bo'lib tadqiq qilinishini ta'kidlaydi. Ular: 1) Har xil sohada qo'llaniladigan terminlar; 2) Bir sohada qo'llaniladigan terminlar; va 3) Oddiy so'z sifatida qo'llaniladigan terminlar.

Hozirda terminlarning o'rganilishi ikki xil yondashuv asosida amalga oshiriladi. Bular normativ hamda deskriptiv yondashuvlardir. Normativ yondashuvda terminlarga leksik birliklarning bir turi sifatida qaralishi va uning maxsus semantik tuzilishga ega ekanligi, shuningdek, ularning adabiy til leksikasidan farqli tarzda, umumis'temoldagi so'zlardan ajralib turish xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Ushbu yondashuv tarafdorlari termin va uning semantikasiga bo'lgan zaruriy talablarni ishlab chiqish orqali, terminlarning qisqa, bir ma'noli, aniq, tizimli va simonimiya xodisasiga uchramasligi kabi talablarni ilgari surishadi. Ushbu yondashuv tarafdorlari bunday terminlarga "ideal termin" [13:408] sifatida qarab, bunday terminlarga dinamik (o'zgarishlarni o'z ichiga oladigan) unsur deb emas, balki statik unsur sifatida qaralishini targ'ib etadilar.

Deskriptiv yondashuv tarafdorlari esa aksincha, terminlarni o'rganilishida ularni turg'un til birligi sifatida qaralishiga qattiq tanqid qilishdi [14:218-284]. Ularga ko'ra, terminlar maxsus so'z bo'lib emas, balki maxsus vazifani bajarishi bilan xarakterlanadi va bu xususiyat ularning o'ziga xos xususiyati sifatini belgilaydi. Shuningdek, oddiy so'zlarning terminlardan

farqlashda, ya'ni termin sifatida qo'llanilmagan holatlarida ushbu til birliklari o'ziga xos xususiyati bilan emas, balki bajarayotgan vazifalariga ko'ra ajratib olinishi ta'kidlanadi. Mazkur holatlarda terminning biroz o'zgartirilib, til birlik sifatida tilga tegishli bo'lishi va til qonuniyatlariga bo'ysunishi mumkinligiga urg'u beriladi.[15:48].

Shuningdek, yondashuv tarafdorlari tomonidan terminlarning ko'p ma'noli bo'lish xususiyatlari ham tabiiy ekanligi, ular ma'lum bir tushunchani ifodalashda so'z birikmalari, antonym va sinonimlardan tashkil topishi mumkinligi ta'kidlanadi. Mazkur yondashuvning qarashlari hozirgi zamonaviy terminologik tadqiqotlarda ilgari surilmoqda, shunindek, ushbu yo'nalishda fikrlarning to'g'ri ekanligi dalillanmoqda.

Chog'ishtirilayotgan tillar terminologiyasining metodologik asoslari tadqiq qilinar ekan, terminlarning ta'rifi va tavsifi, ularga oid turli xil yondashuvlar, o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan bir-birini to'ldiruvchi va qarama-qarshi turuvchi fikr-mulohazalarga duch kelish mumkin. Jumladan, tilshunoslikda yangi nazariyalar paydo bo'lib, ularning shakllanishida filologik, kasbiy-kommunikativ va lingvistik yondashuvlar sabab bo'ldi. Shunday nazariyalarga "Til substratsiyasi" (mahalliy tilning o'zga tilga ta'siri)ni kiritish mumkin. Unga ko'ra terminlar o'z ichiga quyidagi "murakkab uch qatlamli tuzilmalarni oladi: "a) mazmun xususiyatlarini ochib beruvchi mantiqiy substrat; b) termin strukturasining moddiy (tovush yoki grafik) komponenti, shuningdek, bu strukturaning ideal (semantik) komponenti, shuningdek, terminning tabiiy tilning leksik tizimiga tegishlilikini belgilovchi tabiiy til substrati; v) tushunchalar tizimida terminning umumiy yoki mavhum tushunchalarni ifodalashi; d) terminning inson bilimi yoki faoliyatining muayyan maxsus sohasini tavsiflovchi nazariya unsuri vazifalarini bajarishga imkon beruvchi mazmun va funksional xususiyatlar, ya'ni terminologik mohiyat" [16:184].

Leychik tomonidan ilgari surilgan bu nazariya Yu.N. Marchuk va L.Yu. Buyanovalar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi. Bunday yondashuv natijasida terminning lingvistik va terminologik mohiyati o'rtasidagi yaqin munosabatni ko'rish va terminologiyani adabiy til leksikasining ajralmas qismi sifatida qarash mumkin [17:38-40].

Superanskiyga ko'ra, so'nggi vaqtlarda paydo bo'lgan yangi yondashuv terminologiyadagi yangi terminlarni shakllanishida muhim sanaladi va ular neologiya prizmasi orqali yaratilishi va ularning tasniflanishida neologiyaning turlarini aniqlashga turtki bo'layotgani ta'kidlanadi [18; 248].

Terminshunos olim T.Djurayevning fikricha, "Ko'plab turkiy tillar ilmiytexnik terminologiyasining shakllanishi besh bosqichda kechgan. Bu farazga ko'ra, turkiy tillar, shu jumladan, o'zbek terminologiyasi rivojlanishining birinchi bosqichi inqilobdan oldingi O'zbekistonda boshlanib, respublika sanoati, asosan, hunarmandchilik ko'rinishida namoyon bo'lgan va tabiiyki, bu davr adabiyoti, asosan, qurol texnologiyasiga oid terminologiyani aks ettirgan. "Ikkinchi bosqich, o'tgan asrning 20-yillardagi Rossiya ta'sirining kuchayishi va rus tilidan birinchi o'zlashmalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Uchinchi bosqich, o'tgan asrning 30-50-yillarida soha bo'yicha yaratilgan dastlabki darsliklar, texnik adabiyotlar, lug'atlarning paydo bo'lishi bilan ajralib turadi. Bu davrda ilmiy terminlarni yaratish va unifikatsiyalash bilan shug'ullanuvchi Terminologiya qo'mitasi tashkil etilgan. To'rtinchi bosqichda, aniqrog'i, o'tgan asrning 50 va 60-yillarida texnik adabiyotlarni, ayniqsa, mashinasozlik sohasi bo'yicha nashr etish va tarjima qilishning ortishi bilan xarakterlanadi. Va nihoyat, beshinchi bosqich, o'tgan asrning 60-70-yillari "sanoatning mexanizatsiyalashishi va ishlab chiqarishni

avtomatlashtirish bilan bog'liq yangi so'z qatlamlarining paydo bo'lishi" bilan xarakterlanadi [19:60-70]. Unga ko'ra, "O'tgan asrning 20-yillarida O'rta Osiyodagi boshqa respublikalardagi kabi O'zbekistonda ham o'zbek yozuvini yangi alifboga o'tkazish uchun keng miqyosdagi harakatlar boshlangan. Dastlab, 1929-yilda yangi – lotin alifbosiga asoslangan alifbo qabul qilindi, so'ngra 1940-yilda o'zbek yozuvi kirill alifbosiga asoslangan yangi alifboga o'tkazildi va natijada, ilmiy-texnik terminlar, joy nomlari, atoqli otlarning yozilishi unifikatsiya qilindi va bu boradagi barqarorlik ta'minlandi. Bu davrda ijtimoiy tizim va xalq xo'jaligining tubdan qayta qurilishi o'zbek tilida ilmiy-texnika sohasiga oid terminologiyaning yaratilishiga olib keldi" [20:22].

Yangi termin yaratishda Kobrinning fikricha, "Ilmiy terminologiya yaratishning uchta asosiy manbai ilgari suriladi: 1) jonli o'zbek tili; 2) o'zbek tiliga mustahkam o'rnashgan va xalq tomonidan o'zlashtirilgan arab terminologiyasi; 3) yangi terminlar yaratish uchun rus va xorijiy, jumladan, Yevropa tillari terminologiyasidan foydalanish". Shuni ham qayd etish kerakki, o'zbek tili terminologiyasi arab, fors va tojik tillaridagi so'zlar negizida yaratilgan bo'lib, hozirgi kunga qadar o'z ma'nosini yo'qotmagan. Xususan, *maktab, sinf, muallim, ma'ruza, muvozanat, vazn, tijorat, bojxona, viloyat, falak, huquq, tarkib, matn, mavzu, hokim* va h.k. termin va so'zlar nafaqat mutaxassislar, shuningdek aholining keng qatlamlari nutqida hech qanday qiyinchiliklarsiz faol ishlatiladi [10:30].

Hozirda ushbu tillardagi so'zlar terminlarni yaratishda ishtirok etmasada, hozirgi kunda ham ishlatilayotgan ayrim terminlarning negizi shu tillarga borib taqaladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, o'zbek ilmiy texnika terminlarining katta qismini boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar tashkil etadi va bu Globallashuv jarayoni bilan bog'liq bo'lib, davlatlararo o'zaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarning rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish kerakki, Vyuster va boshqa mutaxassislar tarjimon bo'lmaganlar, ular terminologiya tadqiqotlari metodologiyasini ishlab chiqqan fan mutaxassislari bo'lib, bu sohada yanada faol tadqiqotlar uchun asos solishgan. Ularning sa'y-harakatlari tufayli nafaqat metodologiya yanada rivojlantirildi, balki terminologiyani ilmiy dunyoda birinchi o'ringa olib chiqishga yordam berishdi. Vyuster terminologiyaga o'zining ilmiy nazariyasi, ya'ni terminologiyaning umumiy nazariyasini kiritdi, bu terminologiyaning o'rganish obyekti va tushunchalarini aniq belgilab berdi. Jumladan, Avstriya, sobiq Sovet Ittifoqi va sobiq Chexoslovakiyada paydo bo'lgan terminologik maktablarning har biri o'z yondashuvlari asosida terminologiya metodologiyasini rivojlantirishga hissa qo'shgan bo'lsa, o'zbek terminologiyasi metodologiyasi rivojiga ham terminologlarning turli yondashuv, nazariyalari va qarashlari orqali soha rivojlandi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, chog'ishtirilayotgan tillar terminologiyasining rivoji turli davrlarda yuz bergan va soha rivojiga siyosiy-ijtimoiy omillarni ham ko'rsatish mumkin.

Адабиётлар/Литература/References:

1. M. Teresa Cabré Terminology "Theory, methods and applications" John Benjamins Publishing Company Amsterdam/Philadelphia 1999. p.2, 12, 103,331
2. Rondeau Guy & Helmut Felber, ed. 1981. Textes choisis de terminologie. I Fondements théoriques de la terminologie. Quebec: girsterm (1983) p. 78
3. Соссюр Ф. де. Заметки по общей лингвистике. — М.: Прогресс, 1990; 2001 с.45
4. Drezen, Ernest K. Pri problemo de internaciigo de science-teknika terminaro. Historio, nuna stato kaj perspektivoj. — Saarbrücken: Artur E. Iltis, 1983. P.43

5. Holmstrom, J.E. How translators can help in improving scientific terminology. p.23
6. inmyownterm.com
7. Auger, Pierre. 1988. “La terminologie au Quebec et dans le monde, de la naissance à la maturité”. Actes du sixième colloque OLF-STQ de terminologie. L’ère nouvelle de la terminologie, 27–59. Quebec: Gouvernement du Québec.
8. Drodz, Lubomir. 1981. “Science terminologique: objet et méthode”. Rondeau & Felber 1981. p.115
9. Hamidulla Dadaboyev “O‘zbek terminologiyasi”. Toshkent, 2019.; Dadaboyev K., Bakhronova D. The linguistic formation of defense and engineering terms in Uzbek language. Religación //Revista De Ciencias Sociales Y Humanidades. – 2021. – Т. 6. – №. 30. – С. e210871.
10. Дадабоев Ҳ. “Замонавий ўзбек лексикографияси ва терминологияси” модули бўйича ўқув –услубий мажмуа. – Тошкент, 2016. – В. 28, 30.
11. Sobirov B.N “O‘zbek tili filologiyasida terminologiyaning ishlatilishi va ahamiyati”. Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali №10
12. Tursunov U. “ O‘zbek adabiy tilida so‘z – terminlar tanlash prinsiplari”, “O‘zbek terminologiyasi masalalari”, “Til – terminologiyada burjuaziya intilishlariga qarshi”, “Terminologiya masalalari”.
13. Лотте Д.С. Очередные задачи технической терминологии (1931) / Д.С. Лотте // Татаринов В.А. История отечественного терминоведения. Классики терминоведения: Очерк и хрестоматия.- М., 1994. – 408 с.;
14. Винокур Г. О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии / Татаринов В.А. История отечественного терминоведения. Т.1. Классики терминоведения. Очерк и хрестоматия. – М.: Московский лицей, 1994. – С. 218 – 284.;
15. Omonov B.X. “Ingliz va o‘zbek tillaridagi geologiyaga oid terminlarning qiyosiy tadqiqi” nomli f.f.b.f.d dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023. – В. 48.
16. Лейчик В. М, Бесекирска Л. Терминоведение. Предмет, методы, структура. – Bialystok, 1998. – 184 с.
17. Головин Б.Н. О некоторых аспектах лингвистического и информационного изучения термина // Научный симпозиум “Место терминологии в системе современных наук”. – М., 1970. -С. 38-40.;
18. Суперанская, А.В. Подольская, Н.В. Васильева, Н.В. Общая терминология: вопросы теории [Текст] / А.В. Суперанская, Н.В. Подольская, Н.В. Васильева / Отв. ред. Т.Л. Канделаки: Изд.5-е. – М.: Либроком, 2009. –248 с
19. Канделаки Т.Л. К вопросу о номенклатурных наименованиях // Вопросы разработки научно-технической терминологии. – Рига: “Зинатне”, 1973. – С. 60-70.
20. Джураев Т.К. Пути становления и развития технической терминологии на таджикском языке. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Душанбе, 1985. – 22 с.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/2 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).